



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA, IFODALI O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi,**  
*Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

**Shavkatova Mohiraxon Baxtiyor qizi,**  
*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi I- bosqich talabasi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darolarida, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, hamda o'quvchilarda ifodali o'qish ko'nikmasini turli xil metodlar orqali o'rgatish va bu usul yordamida ta'lim samaradorligini oshirish haqida muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** metod, boshlang'ich sinf, ifodali o'qish, ta'lim samaradorligi, metodika, hikoya, o'qish darslari.*

### **Kirish.**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarda sezilarli darajada o'zgarishlar, yangiliklar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham yangilanishlar, yangi qonun, farmonlar bir so'z bilan aytganda yangi ta'lim tizimi ishlab chiqildi. Zamon bilan hamnafas o'sib kelayotgan yosh avlodning sifatli ta'lim olishi uchun mamlakat rahbari tomonidan yetarlicha shart sharoitlar yaratib berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF5712-son farmoniga muvofiq 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishga erishish va xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilandi. Ayni paytda jahon amaliyotiga nazar tashlasak unda matnni tushunish mezonini ustuvor ekanligini ko'ramiz, ya'ni ko'p mamlakatlarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar aynan o'quvchilarning o'qish savodxonligi mezoniga asoslanadi, bu "insonning yozma matnlarni tushinishi va ular ustida fikr yuritishi o'z maqsadlariga erishish bilim va imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanish, faol ishtirok etish qobiliyati sifatida shakllanadi"<sup>1</sup>

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, nafaqat, harflarni tanish va so'zlarni tushunishni o'z ichiga oladi, balki matnni ifodali va ma'noli o'qiy olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ifodali o'qish

<sup>1</sup> "BOSHLANG'ICH SINFLARDA IFODALI O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH" Jumayeva Qunduz Sayimovna 46-son 1-to'plam Iyul 2023



ko'nikmalari o'quvchilarning nutqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, ularning mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Ifodali o'qish - bu matnni tushunarli va jozibali tarzda yetkazish san'ati hisoblanadi. Bu ko'nikma o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, shuningdek, tinglovchilarni jalb qilishga imkon beradi. Ifodali o'qish o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi, ularning til bilish darajasini yuksaltiradi va adabiy asarlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

#### **Ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish usullari:**

1. **Matnni tushunish:** O'quvchilarga matnni chuqur tushunish uchun savollar berish orqali ularning tahliliy fikrlashini rivojlantirish.

2. **Ovoz va intonatsiya:** O'qituvchilar o'quvchilarga turli ovoz balandligi va intonatsiyalarni qo'llash orqali matnni ifodali o'qishni o'rgatishlari kerak.

3. **Rollarni almashtirish:** Rollarni almashtirish mashqlari orqali o'quvchilarni turli personajlar nuqtai nazaridan o'qishga undash.

4. **She'riyat va qo'shiqlar:** She'rlarni va qo'shiqlarni o'qish orqali o'quvchilarning ritm va intonatsiya hissini rivojlantirish.

5. **Dramatizatsiya:** Matnlarni sahnalashtirish orqali o'quvchilarning ifodali o'qish qobiliyatlarini yaxshilash.

Ta'lim beruvchi shaxs yani pedagog, ta'lim oluvchi shaxslarga ya'ni o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularning o'qish samaradorligini, o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning ifodali, ravon, tiniq o'qishini, ona tili darslarida esa o'z fikrini bemalol aniq va ravshan holatda yetkazib bera olish ko'nikmasini shakllantirishga o'rgatadi.

O'quvchi yoshlarning ifodali o'qishlari, aniq va ravshan, badiiy sof tilda gapirishlari uchun o'z saviyalariga mos, yoshlariga doir bo'lgan kitoblarni o'qishlari kerak, bu masalada o'qituvchi ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib, bola yoshiga mos bo'lgan, asar g'oyasi, to'g'ri bolani vatanparvarlik, oliyjanoblik ruhida tarbiyalashga chorlaydigan, qiziqarli kitoblarni tanlab beishi lozim. O'qituvchi dars jarayonida mazuda kelgan matnlarni, sherlarni ifodali va sof bayon etsa bola ongida o'qituvchiga nisbatan tasurotlari darsga bo'lgan diqqati hamda kitobga bo'lgan muhabbati yanada ortadi. Ifodali o'qish jarayonida nafaqat uning diqqati balki uning tasavvuri tafakkuri ham rivojlanadi. O'quvchi aynan muhitda yashaydi. O'quvchilarning muhitga bo'lgan emotsionalligi undagi tasurotlar ko'rgazmali tarzda yetkaziladi. Ifodali o'qish turlari uch xil bolib ular quydagilar:

- 1 Yakka o'qish,
- 2 Ro'llarga bo'lib o'qish,



3 Jo‘r bo‘lib o‘qish,

O‘qishning yakka turida barcha ma’suliyat faqatgina bir o‘quvchiga tushadi, o‘quvchi she’rni boshidan to oxirigacha ifodali qilib o‘qish jarayonida, bir xil tonda ketmasdan, ro‘lga kirib o‘qiydi.

Ro‘llarga bo‘lib o‘qishda o‘quvchilar bir birlarini tinglashni, diqqat qilishni, kuzatishni o‘rganishadi.

Masalan: ertaklarni hikoya qissalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ro‘llarga bo‘lib o‘qishlari mumkun „Bo‘g‘irsoq ertagi misolida”.

Jo‘r bo‘lib o‘qish asosan o‘quvchilar bilan alifbe bayramlarida, tadbirlarda juda ham asosli o‘qish turi hisoblanadi. Masalan: tadbirda bizning shior deyilsa jo‘r bo‘lib hamma „a’lo o‘qish va yuksak cho‘qqilarga intilish” deyishi

O‘qish darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish malakalari takomillashib, to‘g‘ri, ongli, va ifodali o‘qish badiiy asar g‘oyasini tushunish qobiliyatlari o‘sib boradi. 2-sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining 1-qism 1-bo‘limida “Katta bo‘lsam, Nobel mukofotini olaman!” mavzusida keltirilgan quyidagi hikoyasi “Nobel olaman!”, ya’ni bu hikoya o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, tabiatni asrashga, o‘quvchilarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga intilishiga yordam beradi.<sup>2</sup>

Izohli o‘qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos solgan, u o‘qishda o‘quvchilarni “ongli, tushunib, o‘ylab o‘qishga” o‘rgatishni alohida ta’kidlaydi va uni “Izohli o‘qish” deb nomlaydi. Izohli o‘qish metodiga K.D.Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritadilar. Korf va Vaxterev izohli o‘qish o‘quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o‘quvchilarga o‘qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog‘liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar. 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan “Quyoshning bolalari” matni bolalar uchun faqat quyosh haqida emas, balki ular bilmagan sayyoralar haqida ham qiziq ma’lumotlar beradi. Matn: “Qadim zamonda koinotning cheksiz kengliklarida to‘qqizta aka-uka sayyora bo‘lgan ekan. Ular: quvnoq Merkuriy, yoqimtoy Venera, beg‘ubor Yer, uyalganda darrov qizarib ketadigan Mars, shirinlikxo‘r Yupiter, ozg‘in bo‘lay deb hamisha halqa aylantirib yuradigan Saturn, yuvoshgina Uran, xayolparast Neptun va Pluton edi.”- deya boshlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiku, o‘quvchilar

<sup>2</sup> BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI IFODALI O‘QISHGA O‘RGATISH  
Ishmirzayeva Mastura INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION  
International scientific-online conference



uchun darsliklar yangilanib borishi ularning o'qish malakalarini yanada rivojlantiradi.<sup>3</sup>

**Xulosa.** Maktabda o'qitiladigan eng muhim predmentlardan biri bu o'qish hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat turi o'qish faoliyati hisoblanadi. Bu jarayon esa kichik maktab yosh davri va o'rta maktab yosh davridagi bolalarga o'qish malakalarini takomillashtirish va o'stirish ustida tizimli maqsadlarni ishlashni talab qiladi.

Hozirgi kunda kitoblarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, qiziqarli, rasmlil, hattoki yig'ma jildli kitoblar ham nashr etilmoqda. Ta'lim oluvchilarga o'qituvchi bola yoshidan kelib chiqqan holda uyda qo'shimcha o'qish uchun vazifa topshirig'ini berishi ham ta'lim sifatini oshirilishiga katta samara beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF5712-son farmoni.
2. "Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish" Jumayeva Qunduz Sayimovna 46-son 1-to'plam iyul 2023
3. „Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish” Ishmirzayeva Mastura
4. M.Umarova, X. Hamraqulova. R.Tojiboyeva 3-sinf o'qish kitobi “O'qituvchi” nashiryoti Toshkent 2016 y
5. „Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirish” Ergasheva Durdona <https://doi.org/10.5281/zenodo.7437995>
6. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408-411.
8. Imomaliyeva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
9. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1048-1052.
10. Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. Kokand University Research Base, 216-219.

<sup>3</sup> BOSHLANG'ICH SINFLARIDA TO'G'RI O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH Ergasheva Durdona <https://doi.org/10.5281/zenodo.7437995>